

Namangan viloyatida umumiy o'rta ta'lim


2025/2026 o'quv yili boshiga

- I. Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
- II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari
- IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)
- V. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari

Namangan viloyatida 2025/2026 o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni **783 tani** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yili boshiga nisbatan **53 taga**, ya'ni **7 % ga** oshgan.

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2025/2026 o'quv yili boshiga viloyatda jami **37 ta** nodavlat umumta'lim tashkilotlari faoliyat yuritgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **2,5 barobarga** ko'paygan.

**Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026 o'quv yili boshiga, birlik)

	Umumta'lim tashkilotlari soni, jami	shundan: nodavlat umumta'lim tashkilotlari
Namangan viloyati	783	37
Namangan sh	67	11
Davlatobod t	29	3
Yangi Namangan t	30	5
<i>tumanlar</i>		
Mingbuloq	55	3
Kosonsoy	61	2
Namangan	40	2
Norin	46	-
Pop	79	-
To'raqo'rg'on	66	1
Uychi	48	1
Uchqo'rg'on	52	2
Chortoq	61	3
Chust	81	3
Yangiqo'rg'on	68	1

2025/2026 o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining eng ko'p soni Chust tumani (**81 ta**), Pop tumani (**79 ta**) va Yangiqo'rg'on (**68 ta**) tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Davlatobod (**29 ta**), Yangi Namangan (**30 ta**) va Namangan tumanlarida (**40 ta**) qayd etilgan.

Nodavlat umumta'lim tashkilotlariga kelsak, ularning ko'p qismi Namangan shahri (**11 ta**), Yangi Namangan (**5 ta**) tumanida, eng kami esa To'raqo'rg'on va Uychi tumanlari (har bir hududda **1 tadan**) qayd etilgan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni](#)

II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

Namangan viloyatida 2021/2022 – 2025/2026 o'quv yillarida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishi kuzatilgan. Ushbu davrda o'quvchilarning umumiy soni **58,8 ming kishiga**, ya'ni **11,5 % ga** ko'paygan.

O'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Ushbu davrda qiz bolalar soni **28,1 ming nafarga**, ya'ni **11,2 % ga**, o'g'il bolalar soni esa **30,7 ming nafarga**, ya'ni **11,7 % ga** oshgan.

O'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'quvchilar soni, jami	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
		qiz bolalar	o'g'il bolalar	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Namangan viloyati	571,3	279,2	292,1	48,9	51,1
Namangan sh	79,9	37,7	42,2	47,1	52,9
Davlatobod t	33,9	16,1	17,8	47,6	52,4
Yangi Namangan t	32,6	16,7	15,9	51,2	48,8
<i>tumanlar</i>					
Mingbuloq	25,0	12,2	12,8	48,8	51,2
Kososnsoy	43,1	21,6	21,5	50,1	49,9
Namangan	35,8	17,5	18,3	48,9	51,1
Norin	30,2	15	15,2	49,5	50,5
Pop	40,9	20,2	20,7	49,5	50,5
To'raqo'rg'on	47,0	23,2	23,8	49,4	50,6
Uychi	43,2	21,4	21,8	49,6	50,4
Uchqo'rg'on	32,4	15,9	16,5	49,2	50,8
Chortoq	38,4	18,6	19,8	48,5	51,5
Chust	48,6	23,3	25,3	47,9	52,1
Yangiqo'rg'on	40,3	19,8	20,5	49,2	50,8

Namangan viloyatining barcha hududlarida o'g'il bolalar soni qiz bolalar sonidan o'rtacha **2,2 % ga** ortadi. O'quvchilarning eng ko'p qismi Namangan shaxri (**79,9 ming**), Chust (**48,6 ming**) va To'raqo'rg'on (**47,0 ming**) tumanlarida qayd etilgan, eng kami esa Mingbuloq (**25,0 ming**) va Norin (**30,2 ming**) tumanlariga to'g'ri kelgan. O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi eng sezilarli tafovut Namangan shahrida bo'lgan (o'g'il bolalar – **52,9 %**, qiz bolalar – **47,1 %**), boshqa hududlarda o'g'il va qiz bolalar nisbati taxminan bir xil.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'quvchilar soni \(jami\)](#)


[O'quvchilar soni \(qiz bolalar\)](#)

[O'quvchilar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari

2025 yilda Namangan viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX sinf bitiruvchilari soni **39,0 ming kishini** tashkil etgan va 2021 yilga nisbatan ularning soni **0,1 ming kishiga**, ya'ni **0,3 % ga** ko'paygan. XI sinf bitiruvchilari soni esa, 2025 yilda 2021 yilga nisbatan **-1,5 ming kishiga** ko'maygan va **37,2 ming kishini** tashkil etgan.

IX va XI sinf bitiruvchilari soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



IX sinf bitiruvchilari soni XI sinf bitiruvchilariga nisbatan ko'pligi ba'zi o'quvchilar IX sinfni tugatgandan so'ng akademik litsey yoki kasb-hunar maktablarida o'z o'qishlarini davom ettirayotgani anglatadi.

IX va XI sinf bitiruvchilari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	IX sinf bitiruvchilari	XI sinf bitiruvchilari
Namangan viloyati	47,0	41,7
Namangan sh	5,9	5,6
Davlatobod t	2,3	2,1
Yangi Namangan t	2,0	1,8
<i>tumanlar</i>		
Mingbuloq	1,5	1,5
Kosonsoy	2,5	2,4
Namangan	2,6	2,5
Norin	1,8	1,8
Pop	2,5	2,5
To'raqo'rg'on	3,3	3,7
Uychi	3,1	2,9
Uchqo'rg'on	2,3	1,7
Chortoq	2,9	2,9
Chust	3,4	3,2
Yangiqo'rg'on	2,8	2,7

IX sinf bitiruvchilarining eng ko'p qismi Namangan shaxar (**5,9 ming**) va Chust (**3,4 ming**) tumanida, eng kam esa Mingbuloq (**1,5 ming**) va Norin (**1,8 ming**) tumanlarida qayd etilgan. XI sinf bitiruvchilari orasida ham Namangan shaxri (**5,6 ming**) va To'raqo'g'on (**3,7 ming**) tumanlari yetakchilik qilmoqda, Mingbuloq (**1,5 ming**) va Norin (**1,8ming**) tumanlarida esa bu ko'rsatkich eng past darajada bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[IX sinf bitiruvchilari](#)

[XI sinf bitiruvchilari](#)

**IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini
yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)**

2025/2026 o'quv yili boshiga Namangan viloyatining umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni **42,6 ming kishini** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yili boshiga nisbatan **4,7 ming kishiga**, ya'ni **12,9 % ga** ko'paygan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Namangan viloyatida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi o'qituvchilarning asosiy qismini ayollar tashkil etgan – **74,7 % (31,8 ming kishi)**, erkaklar esa **25,3 % ni (10,8 ming kishi)** tashkil etgan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2025/2026 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'qituvchilar soni, jami	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
		ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
Namangan viloyati	42,6	31,8	10,8	74,7	25,3
Namangan sh	4,8	3,5	1,3	73,9	26,1
Davlatobod t	2,1	1,7	0,4	80,2	19,8
Yangi Namangan t	1,8	1,4	0,4	76,4	23,6
<i>tumanlar</i>					
Mingbuloq	2,1	1,6	0,5	77,9	22,1
Kosonsoy	3,1	2,0	1,1	65,6	34,4
Namangan	2,4	1,8	0,6	72,7	27,3
Norin	2,4	1,9	0,5	80,8	19,2
Pop	3,7	2,8	0,9	77,0	23,0
To'raqo'rg'on	3,9	2,9	1,0	74,9	25,1
Uychi	3,0	2,2	0,8	74,3	25,7
Uchqo'rg'on	2,7	2,2	0,5	79,3	20,7
Chortoq	3,1	2,4	0,7	75,8	24,2
Chust	4,2	3,1	1,1	73,4	26,6
Yangiqo'rg'on	3,3	2,3	1,0	69,5	30,5

Eng yuqori ayol-o'qituvchilar ulushi Norin tumaniga to'g'ri kelgan (**80,8 %**), Kosonsoy tumanida esa bu ko'rsatkich nisbatan pastroq bo'lgan (**65,6 %**). O'qituvchilarning eng katta qismi Namangan shaxri (**4,8 ming kishi**) va Chust (**4,2 ming kishi**) tumanida qayd etilgan, boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Yangi Namangan (**1,8 ming kishi**) hamadi Davlatobod (**2,1 ming kishi**) tumaniga to'g'ri kelgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Chislennost uchiteley \(vsego\)](#)

V. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Namangan viloyatida umumiy o'rta ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisobot – **1-umumta'lim shakli** “Umumta'lim muassasasining hisoboti” asosida shakllantiriladi. Ushbu hisobotni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining umumta'lim muassasalari, boshqa vazirlik va idoralarning umumta'lim muassasalari, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar litsenziya asosida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar taqdim etadi.

Umumta'lim muassasasining statistik hisobotida o'quvchilar, bitiruvchilar, o'qituvchilar soni hamda umumiy o'rta ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi.

O'quvchilar va o'qituvchilar soni, umumta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi kabi asosiy ko'rsatkichlar yangi o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil uchun keltiriladi. Yig'ma ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, ta'lim islohotlarini rejalashtirish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida va boshqa xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Aholi turmush darajasi va Ijtimoiy
soha statistikasi bulimi

Manzil: 100170Namangan sh.,
N.Namongoniy ko'chasi, 14
El. manzil: info@stat.uz
Tel.: 69-211-72-00